

**TA'LIM METODLARI TASNIFI VA ULARGA TURLICHA
YONDASHUVLAR MOHIYATI**

*University of management and
future technologies universitetining*

Xorijiy til va adabiyot

Fakultetini 2-kurs talabasi

Muxamedova Robiya

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lim metodlarining tasnifi hamda ularga turlicha yondashuvlarning mohiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlarning maqsadga muvofiqligi, ularning didaktik tamoyillar bilan uyg'unligi va samaradorlik darajasi asoslab beriladi. Maqolada an'anaviy, zamonaviy va innovatsion ta'lim metodlari o'rtasidagi farqlar, shuningdek, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro hamkorligi nuqtayi nazaridan yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda interfaol o'qitish, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar va ularning o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishdagi roli tahlil etilgan. Natijada, ta'lim metodlarini tanlash va qo'llashda tizimli, ijodiy hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning muhimligi ta'kidlanadi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim metodlar, didaktiv yondashuv, o'qitish jarayoni, interfoal metodlar, an'naviy metodlar, o'quv-bilim jarayoni, o'quvchi markazida yondashuv, o'qituvchi markazida yondashuv, samaradorlik.*

Metod so'zi yunonchadagan olingan bo'lib yo'lda maqsadga erishish usuli deb ataladi aniqroq qilib aytganda o'quv jarayonlarni tartibga soladigan faoliyatdir. Metodlarni asosiy maqsadi olgan barcha nazariy bilim va ilmlarizni metodlar orqali o'quv jarayonida qo'llay olishdir ya'ni o'quvchiga to'g'ri ishlata olish. Metod yani ilmiy nazariyalarni ochilishga vosita bo'la oladi. Bundan tashqari ta'lim metodlari o'qituvchi va o'quvchilarni o'zaro faoliyati o'qitish va o'qishga yo'naltirilgan aniq



harakatlar va usulardir. Ya'ni bunda o'quv-bilish jarayoni keng yoritib beradi. Didaktikada, ta'lim funksiyasi keng qo'llanadi. Ta'lim usuli - ta'lim metodining tarkibiy qismi va alohida tomoni. Metod va usul munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga bog'lanadi. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Aynan barcha metodlar va usullar o'qituvchilar tomonidan turlicha usullarda ochib beriladi. Masalan o'qituvchilar ko'p qo'llanadigan o'quv qo'llamalariga ko'ra amaliy metod hisoblansa, uni qo'llashda bir nechta usullar va amaliy metodlar foydalanishadi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlari o'qituvchi va o'quvchi-talaba faoliyatni qanday bo'lishi va o'qitish jarayonlarini, ya'ni nazariy ma'lumotlarini qanday qilib olib borishni belgilab beradi. Usullar yordamida faqat o'quv jarayonlarini bir qismni belgilab beradi xolos,

Ayrim o'qituvchilar “metod” tushchasini “uslub” deb qo'llaydilar, keling metod va uslubni ta'lim jarayonida qanday farq qilishni ko'rib chiqamiz.

Metod- yunoncha “*methodos*” - “yo'l, usul” — bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim maqsadiga erishish yo'lidagi umumiy harakat yo'li. Ya'ni, metod – “nima orqali o'qitamiz?” degan savolga javob beradi.

Uslub- bu tanlangan metodni amalga oshirishning aniq shakli va yo'li ya'ni metodni bir elementi U “qanday qilib” shu metodni qo'llaymiz uni “o'quvchi va talabaga qanday yetkazib beramiz ?” degan savolga javob beradi.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifi deganda biz didaktiv degani o'zi nima Didaktika - bu ta'lim nazariyasi, ya'ni o'qitish va o'rganish jarayonining qonuniyatlarini o'rganuvchi pedagogika bo'limi hisoblanadi. Zamonaviy didaktika metodlari faqat bilim berish emas, balki shaxsni rivojlantirish, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni shakllantirish asosiy qoidasi hisoblanadi misol qilib oladigan bo'lsak, hozirgi kundagi talabalar 4/2 mexanizimda o'qishadi bu nima degani? Ya'ni talabalar to'rt kun nazariy o'qib, ikki kun amaliy mashg'ulotga borisahdi u yerda o'quvchilarni yuqorida aytilgandek usular va metodlardan foydalanib dars o'tish jarayonni o'rganishadi. Bu esa juda ham foydali bo'ladi.

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlari tasnifining asosiy yo'nalishlari:



1. Bilim manbai bo'yicha tasnif (E.I. Golant, N.M. Verzilin, M.N. Skatkin)

- Og'zaki metodlar: hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza.
- Ko'rgazmali metodlar: kuzatish, tajriba, namoyish, slayd, video, modeldan foydalanish.
- Amaliy metodlar: mashq, laboratoriya ishi, loyiha, amaliy topshiriq.

2. O'quv faoliyati xarakteriga ko'ra (I.Ya. Lerner va M.N. Skatkin)

- Tayyor bilimlarni o'zlashtirish metodi (o'qituvchi yetakchiligida).
- Reproduktiv metod – o'quvchi oldindan berilgan namunani takrorlaydi.
- Muammoli ta'lim metodi – muammoli vaziyat orqali fikrlashni faollashtiradi.

Zamonaviy didaktika ta'lim metodlari tasnifi – bu qat'iy sxema emas, balki moslashuvchan tizim bo'lib, dars maqsadi o'quvchi ehtiyoji va fanning xususiyatiga qarab tanlanadi. Bugungi kunda metodlar va usullar bilim va ilim berish emas ya'ni nazariy ilm bilan cheklash emas, balki talab avval o'quvchi faol, ijodkor, mustaqil fikrga ega shaxs sifatida o'qitish kerak chunki Kundan kunga zamonaviy ta'lim talabi oshib bormoqda.

Didaktikani asosiy tushunchalari:

Ta'lim- o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoni.

Bilim- o'rganilgan ilmiy ma'lumotlar yig'indisi.

Ko'nilma- bilimni amalda qo'llay olish qobiliyati.

Malaka – ko'nikmani takrorlash orqali avtomatik darajaga yetkazish.

Didaktika – ta'lim jarayonining nazariy asosi, ta'lim metodlari esa, shu jarayonni amalga oshiruvchi amaliy vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xaydarov. S.A. (2025). Oilaviy tarbiyada va maktab tarbiyasida yuzaga keladigan risklar. 16-son. 9-11.
2. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of



- Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
3. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.
4. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
5. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo'llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94.
6. Xaydarov S.A. (2025). Yoshlarda vatanparvarlik hissinini tarbiyalashda Boburnoma asariga ishlangan miniatyuralarning ahamiyati. Til va adabiyot.uz. 2.11-12.
7. Khaydarov S.A. (2025). On analysis of family factors and social creativity issues in the study of the psychological portrait of educational institutions' leaders. Tuijin Jishu/Journal of Propulsion Technology ISSN: 1001-4055 Vol. 46 No. 2.
8. Хайдаров С. (2025). Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati. 3 (9). 261-265.